

XALQARO VA MILLIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA PROFESSOR-O'QITUVCHILAR FAOLIYATINI BAHOLASHNING TAHLILI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Isroilov Jamshid Dilshodovich¹, Pulatov Sherzod Utkurovich², Abdullaev Murodjon Muxtorovich³,
Urinkulov Odiljon Naziralievich³

¹Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi (PhD), Dotsent

²Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti(PhD), Dotsent

³Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi,tadqiqotchisi

КАЛИТ СЎЗЛАР	АННОТАЦИЯ
Kompetensiya, o'qituvchi malakasi, oliy ta'lim, ta'limni modernizatsiya qilish, elektron ta'lim muhiti, baholash, pedagogik faoliyatni baholash, baholash mezonlari, o'qituvchi, komissiya.	Maqolada Dunyo mamlakatlaridagi oliy ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari axborotlashtirish va raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni modernizatsiya qilish muammolari, pedagog kadrlar faoliyati baholash turlari, jarayonlari va mezonlari ko'rib chiqiladi. Xulosa qilib aytganda, maqolada zamonaviy elektron ta'lim muhitining universitet o'qituvchisi kompetentsiyasiga va umuman ta'limni modernizatsiya qilishga ta'siri haqida xulosalar keltirilgan.

I.Kirish.

Zamonaviy oliy ta'limni modernizatsiya qilish jarayoni hozirgi kunda ta'lim tizimidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. U pedagogik faoliyatning sifati va samaradorligini nazorat qilishning yangi usullarini joriy etish orqali mavjud kontseptsyani sifat jihatidan yaxshilash bilan birga keladi. Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimini va malaka darajasini oshirish o'quv jarayoni sifatini boshqarishning muhim bo'g'inidir. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda. Hozirgi vaqtgacha yaratilgan davlat ta'lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan, ya'ni ta'lim maskanlarining maqsadini bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzida aniqlashtirishdan iborat edi. Shu bois yangi davlat ta'lim standartlarini o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetent-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki oliy ta'limda tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati tinglovchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas,

balki bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Shunday qilib, universitet bitiruvchilarining ta'lim sifatini hamda universitet o'qituvchilari faoliyatini baholashning samarali usullarini ishlab chiqish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Universitet professor-o'qituvchilari faoliyatini baholashda

xorijiy universitetlar tajribalariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchilarning ish sifatini baholashning asosiy yondashuvlarini Amerika qo'shma shtatlari universitetlarida ko'rib chiqsak.

Bugungi kunda ushbu shtatdagi ta'lim tizimi dunyodagi eng sifatli va eng nufuzlilaridan biri sifatida tan olingan. 40 dan ortiq Amerika universitetlari dunyodagi eng nufuzli universitetlarning TOP-100 kiritilgan. Har yili 500 000 dan ortiq chet ellik talabalar Qo'shma Shtatlarda tahsil oladilar, ayni paytda yashovchi barcha Nobel mukofoti sovrindorlarining qariyb 75 foizi o'z universitetlarida dars beradi. Shu bois universitet o'qituvchilari faoliyatining monitoringi va sifatini baholashni tashkil etishda ularning

yondashuvlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. [1; 2].

AQSHda o'qituvchilar tarkibini baholash professional standartlar asosida amalga oshiriladi, unga ko'ra yaxshi o'qituvchi tinglovchilar bilan muloqot qilish qobiliyati bilan ajralib turishi kerak, bunda nutqning ravshanligi, o'quv jarayonini to'g'ri tashkil jarayonlarini nazarda tutiladi., bundan tashqari pedagog xodim mavzuni yaxshi bilish, o'quv materiallaridan to'g'ri foydalanish, mavzuni talabalarga to'g'ri tatbiq etish uslubi, talabalar darsga bo'lgan e'tiborini o'zida mujassamlashtira olishi kerak. O'qituvchilar faoliyatini baholash, talabalar, hamkasblar va ma'muriyatning fikrlarini o'rganish asosida amalga oshiriladi. Talabalar o'qituvchining muloqot qobiliyatini, u o'qigan kitoblarning qadr-qimmatini va faoliyatining umumiy samaradorligini to'g'ri baholay oladilar; hamkasblar - o'quv dasturi mazmunining qimmatligi darajasi va joriy talablariga muvofiqligi, foydalanilgan o'quv adabiyotlari va

materiallari ro'yxati, imtihon savollari mazmuni, talabalar o'zlashtirish darajasi, bilimlarni baholash usullari va boshqalar orqali o'qituvchi faoliyatini baholay oladilar. [3,4]

Amerika universitetlarida o'qituvchilar faoliyatini baholash quyidagi qoidalariga asoslanadi:

- Ta'lim sifati, o'qituvchilarning ilmiy qobiliyatlari va professionallik darajasi bilan belgilanadi.
- Aniq mezonlarning mavjudligi va o'qituvchilarga berilgan funksiyalarni bajarish bo'yicha maslahat berish tizimining mavjudligi, baholash samaradorligining sharti hisoblanadi.
- Pedagogik kadrlar faoliyatini davriy baholash, professor-o'qituvchilarning ma'naviyatini yuksaltirishi hamda samarali faoliyat yurituvini rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. O'qituvchilarning faoliyatini baholash quyidagilarga muvofiq amalga oshiriladi:



1-rasm O'qituvchi faoliyatini baholash

Amerika qo'shma shtatlari universitetlarida professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash murakkab jarayon hisoblanadi. Misol uchun: Muayyan kafedra tomonidan qo'llaniladigan baholash tizimi ma'lum bir universitetda mavjud bo'lgan talablarga bog'liq bo'ladi.[5]

AQSh universitetlarida o'qituvchilarning faoliyatini tartibga soluvchi Nizom va

ko'rsatmalarda o'qituvchilarning har biri uchun rasmiy baholash faylini yuritishni talab qiladi. Unga faqat o'qituvchi faoliyatini baholash bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qiladigan universitet ma'muriyati kirish huquqiga ega. Ushbu fayllarda o'qituvchining faoliyati davomidagi har qanday ma'lumot bo'lishi mumkin, ushbu ma'lumotlar baholash jarayonida ishlatilishi mumkin. [6]

Buyuk Britaniyada o'qituvchilar faoliyatini baholash usullari.

Buyuk Britaniya Universitetlarda o'quv jarayonlari individuallashtirilgan tartibda amalga oshiriladi va o'qituvchining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Bu erda nafaqat "talaba-o'qituvchi" tendensiyasi samarali tashil etilgan, balki butun professor-o'qituvchilar o'zaro butun o'quv jarayonlarini tashkil etadi. O'qitish darajasini baholashda komissiya talabalarning o'quv tajribasi sifatini va ularning yutuqlarini tekshiradi, talabalarni egallagan bilim darajasining natijasiga qarab o'quv fani o'qituvchisining pedagogik mahorati baholanadi. [7; 127; 129; 132; 180].

Britaniya universitetlarida ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan quyidagi lavozimlar mavjud: professor, professor yordamchisi, katta o'qituvchi, repetitor, o'qituvchi.

O'qitish darajasini baholash jarayonida komissiya talabalarning o'quv tajribasi sifatini va ularning yutuqlarini tekshirishib chiqdi. Natijani o'quv jarayonida fan o'qituvchisi tomonidan qo'yilgan vazifalar va topshiriqlar bilan taqqoslaydi. [8]

Buyuk Britaniya universitetlarida ta'lim sifatini baholash mezonlari asosan quyidagilardan iborat:



2-rasm. Ta'lim sifatini baholash mezonlari

O'qitish sifatini baholash natijalari raqam shaklda taqdim etiladi: har bir toifaga quyidagi belgi qo'yiladi "1" dan "4" gacha. Shunday qilib, ballarning maksimal miqdori 24 ga teng bo'lishi nazarda tutilgan. [9]

Germaniyada ta'lim sohasidagi kadrlarni baholash.

Mavjud adabiyotlar tahliliga ko'ra, Germaniyada o'qituvchilar tarkibini baholashda amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv keng tarqalganligini ko'rsatadi, bu quyidagilar bilan bog'liq:

1. Hukumat organi ushbu sohasida deyarli monopol kompetensiya.
2. Oliy ta'limning yuqori darajasi va obro'si;
3. O'qituvchilarning yangilanishga bo'lgan shaxsiy qiziqishi va ularning mahoratini oshirish, yangi o'quv dasturlarini joriy etishning yuqori sur'atlari va ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, shuningdek o'qituvchilarning zamonaviy talablarga javob berish istagi.

Germaniyada kasbiy faoliyatni baholash jarayonida uchta asosiy toifalarga asoslanadi:



3-rasm. Kasbiy faoliyatni baholash jarayoni


Davlat xizmatchilari sifatida Germaniya davlat ta'lim muassasalarining barcha pedagogik va rahbar xodimlari "muntazam ravishda rasmiy baholashdan" o'tishlari talab etiladi. Shuning uchun ularning barchasi rasmiy sertifikatlash obyekti hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning har bir bosqichida baholash va nazorat qilishning muayyan shakllari va usullari mavjud bo'lib, ularni baholash obyektlari abituriyentlar, talabalar, o'qituvchi-stajorlar, o'qituvchilar, malaka oshirish kurslari va seminarlari tinglovchilari, turli lavozimlarga nomzodlar, subyektlar esa ta'limni boshqarish organlari hisoblanadi [10].

O'zbekistonda pedagog kadrlar bilimini baholash mezonlari.

O'zbekistonda pedagogik kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash malakasini oshirish hamda keng islohotlar olib borish maqsadida bir qancha farmonlar, qarorlari, ishlab chiqilgan misol uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909 sonli [11] hamda 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sonli [12] qarorlari oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalariga mos holda kadrlar tayyorlashning

ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifalarini ko'zda tutadi [11,12].

Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi “Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash” to'g'risidagi 20-son qarorining nizomida [13] Oliy ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari faoliyatini o'rganish mezonlari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu nizomga ko'ra pedagog xodimlarning faoliyatini baholash 110 ballik quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholadi:



O'qituvchilarning faoliyatini baholashda, eng avvalo pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlarini tizimlashtirish va tizimli tahlil asosida muhim omillarni aniqlash muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari faoliyatini baholash samaradorligi bevosita pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari, omillari va mezonlarini aniqlashga bog'liq bo'ladi. [14].

II.Xulosa

Shunday qilib, turli mamlakatlarda pedagog xodimlarni turli yo'llar bilan baholash jarayonlari amalga oshiriladi, lekin ularning umumiy yondashuvlari quyidagilarga asoslanadi.

1. Pedagogik kadrlarni darajasini(saviyasini) baholash sohasidagi siyosat, malakalariga muvofiq ulardan optimal tarzda foydalanishga, ularda professional(kasbiy) jihatdan rivojlanishga ehtiyojni shakllantirishga va ushbu ehtiyojni qondirishga imkoniyat yaratishga yo'naltirilgan.
2. Xorijda pedagog kadrlarni malakasini baholash quyidagi muhim prinsiplar asosida quriladi – o'qituvchi shaxsiga, uning fuqarolik va kasbiy huquqlariga hurmat munosabatida, dasturlar va baholash mezonlarini ishlab chiqishda ikki tomonlama jarayon zaruriyati ya'ni o'qituvchilarning ishtiroki ham zarur.
3. O'qituvchilar faoliyatini baholash orqali ish sifatiga qo'yiladigan talablarni doimiy ravishda oshirish. AQSH va Buyuk Britaniyada mehnat haqi amalda baholash natijalariga ko'ra ish sifati bilan bog'liqligi yo'lga qo'yilgan, ya'ni o'qituvchining yuqori sifatli mehnati uchun qo'shimcha haq to'lash amalga oshiriladi.
4. Universitetlarda o'quv jarayoni sifatiga umumiy yondashuv quyidagilar bilan bog'liq:
5. olimlar professor-o'qituvchilar tarkibining professional(kasbiy) darajasini(saviyasini) birinchi o'ringa qo'yishadi;
6. professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy va pedagogik bilim boyligi;

Boshqa mezonlardan biri abituriyentlar kontingentining darajasi(saviyasi), o'quv jarayonining tashkillashtirilganligi, oliy o'quv yurtlarida muhim lekin hal qiluvchi rol o'ynamaydigan zamonaviy uskunalar bilan jihozlanganligi hisoblanadi.

Bundan tashqari, turli mamlakatlarning muayyan ta'lim muassasalari o'qituvchilarini faoliyatini baholashda oliy ta'lim muassasalarini madaniy, tarixiy va milliy qadriyatlarini yuksaltirishda qo'shgan hissalari inobatga olinadi. [3]

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida ta'kidlangan pedagogik faoliyatning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan komponentlari, omillari va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining faoliyatini baholashning obyektiv mexanizmlari oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

III.Foydalanilgan Adabiyotlar.

1. Альтбах Ф. Будущее высшего образования и академической профессии: страны БРИК и США [Текст] / Ф. Альтбах и др.. – М.: ВШЭ, 2013.
2. Григораш О.В. О перспективах развития системы образования в России / О.В. Григораш // Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета. – Краснодар: КубГАУ, 2016.
3. Ким И.Н. Практика формирования состава и профессиональных компетенций преподавателей вуза за рубежом [Текст] / И.Н. Ким //высшее образование в России. – 2014.
4. Мотова Г.Н. Модели аккредитации за рубежом: Монография [Текст] Г.Н. Мотова, В.Г. Наводнов. – Йошкар-Ола, 2004.
5. Неборский Е.В. Критерии качества деятельности преподавателей в университетах США [Текст] / Е.В. Неборский // Актуальные вопросы современной педагогики: Материалы IX Междунар. науч. конф. – Самара: ООО «Издательство АСГАРД», 2016.
6. Тартарашвили Т.А. США. Инструменты регулирования качества образования [Текст] / Т.А. Тартарашвили. – М.: Новые печатные технологии, 2015.
7. Исаева Т.Е. Эффективность оценивания деятельности преподавателей вузов: сравнение отечественных и зарубежных методик / Т.Е. Исаева, М.П. Чуриков,

- Ю.Ю. Котляренко // Интернет-журнал «Науковедение». – 2015.
8. Мотова Г.Н. Модели аккредитации за рубежом: Монография [Текст] / Г.Н. Мотова, В.Г. Наводнов. – Йошкар-Ола, 2004.
9. Назарова С. И. Тенденции развития европейского образования: структура, стандарты, оценка / С.И. Назарова // Современные научные исследования и инновации. – 2014.
10. Pulatov, S., Isroilov, J., Abdullaev, M., & Urinkulov, O. (2023). Digital transformation higher education in the conditions of the formation of the digital economy in the Republic of Uzbekistan. *Central asian journal of education and computer sciences (CAJECS)*, 2(2), 14–24.
11. Ражабов Б., Абдукодиров Ф. жиноят процессида исбот қилишнинг иштирокчилари // юрист ахборотномаси. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 94-101.
12. Ражабов Б. А. Обеспечение соблюдения общих условий доказывания в судебно-следственной практике Республики Узбекистан и проблемы в этой сфере Ensuring compliance with the general terms of proof of judicial forensics in the Republic of Uzbekistan and // Журнал юридических исследований. – 2020. – Т. 5. – №. 1. – С. 96-99.
13. Ражабов Б.А. СОБИРАНИЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА // Вестник Полоцкого государственного университета. Серия D. Экономические и юридические науки. 2019. №13. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sobiranie-dokazatelstv-v-ugolovnom-protsesse-opyt-uzbekistana>
14. Ражабов Бахтиёр. "Вопросы оценки доказательств в уголовном процессе" Проблемы современной науки и образования, no. 1 (134), 2019, pp. 69-74.
15. Нехвядович Э.А. Сравнительная оценка эффективности деятельности вуза в России и зарубежных странах [Текст] / Э.А. Нехвядович, Е.П. Косинова, Ю.А. Парфенов и др. // Фундаментальные исследования. – 2015.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775-sonli qarori. www.lex.uz.
18. Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevral "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida" gi nizom. www.lex.uz.
19. Baxodirova G.K. Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchi faoliyatini baholash me'zonlari xususida. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" jurnali, 2022, №8 121-122 b.
20. Abaskhanova Khalima, Khaydarova Markhamat, Mirzaeva Malika DEVELOPMENT OF HARDWARE AND SOFTWARE COMPLEX FOR MONITORING SYSTEM OF AGRICULTURAL CROPS // Universum: технические науки. 2022. №9-5 (102).
21. Mirzaeva M. Analysis of the architecture of data network management systems // ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ. – 2020. – С. 124-127.
22. Mirzaeva M. B. et al. Methods and Tools for Building Network Security Management Centers in Information and Communication Networks // Journal of Algebraic Statistics. – 2022. – Т. 13. – №. 3. – С. 915-923.
23. Пулатов Ш. У., Ни Э. В. Мобильное обучение—один из видов электронного.0 обучения // Сборник докладов научно-методической конференции профессорско-преподавательского состава ТУИТ имени Мухаммада Аль-Хоразмий. Ташкент. – 2018.